

Milliy natyurmort san’atida an’anaviy qadriyatlarining ifodasi

UrDPI San’atshunoslik kafedrasini o’qituvchisi

Otaxanova Nodira Jumanazarovna

nodiraotaxanova1@gmail.com

UrDPI Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi ta’lim yo’nalishi 3-
bosqich talabasi Marksova Dilnoza Ravshanbek qizi

dilnozamarqsva@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy natyurmort san’ati orqali xalqimizning madaniy merosi, urf-odatlarini va qadriyatlarini tasviriy san’at vositasida qanday ifodalanishi tahlil qilinadi. Natyurmort janri O’zbek tasviriy san’atida alohida o’rin egallaydi. Unda xalq hunarmandchiligi mahsulotlarini, milliy taomlar, qadimiy buyumlar va bezaklar orqali o’ziga xos estetik qarashlar aks etadi. Maqolada turli davr va rassomlar ijodidagi milliy natyurmort namunalariga baho berilgan, ularning semantik yuklamasi tahlil qilingan.

Kalit so’zlar: natyurmort, milliy san’at, xalq an’analarini, madaniy meros, tasviriy san’at, o’zbek rassomchiligi, estetik qadriyatlar.

Tasviriy san’at insoniyat tarixining eng qadimiy va boy madaniy qatlamlaridan biridir. U inson tafakkuri, hayotga, borliqqa bo’lgan munosabatini aks ettirish vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. San’atning har bir janri ma’lum bir maqsad va mazmunga ega bo’lib, ular orasida natyurmort o’zining betakror estetik kuchi bilan ajralib turadi. Natyurmort (fransuzcha “nature morte” – o’lik tabiat) — jonli mavjudot bo’lmagan, ya’ni turli buyumlar, mevalar, idish-tovoqlar, gullar va boshqa kundalik hayotga oid narsalarning tasviridan iborat janrdir. O’zbek tasviriy san’ati tarixida natyurmortga alohida e’tibor qaratilgan. Ayniqsa, milliy ruhda yaratilgan natyurmortlar orqali xalqimizning madaniy merosi, qadimiy urf-odatlarini va an’analarini san’at asarlari vositasida namoyon bo’ladi. Ushbu janr orqali rassomlar faqat estetik go’zallikni emas, balki xalq hayoti, ma’naviyati, qadriyatlarini va milliy tafakkur darajasini ham ifoda etadilar. Shuning uchun ham milliy natyurmort nafaqat san’at namunasi, balki tarixiy va madaniy hujjat sifatida ham baholanishi mumkin.

Milliy natyurmortda asosan quyidagi elementlar tasvirlanadi: milliy liboslar, ipak matolar, mis va chinni idishlar, milliy taomlar (non, palov, mevalar), qadimiy



sandiq va gilamlar. Bular nafaqat estetik obyektlar, balki xalq hayoti va madaniyatining timsolidir.

Xunarmandchilik buyumlari — mis idishlar, chinni laganlar, sirlangan ko‘zalar, pichoq va patnislar milliy hunarlarning yuksak darajada rivojlanganligini ko‘rsatadi.



Gilam, atlas, adras kabi matolar — bu elementlar milliylik va estetik didning timsoli bo‘lib, ularni natyurmortlarda fon sifatida ko‘p uchratamiz..

Natyurmort janrida ijod qilgan o‘zbek rassomlari orasida Rauf Tillaev, Anvar Mirsoatov, Bahodir Jalolov kabi ijodkorlar alohida o‘rin egallaydi. Ularning asarlarida milliylik nafaqat obyektlar tanlovida, balki kompozitsiya, rang tanlovi va tasvir uslubida ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Masalan, Rauf Tillaevning natyurmortlarida doimiy ravishda gilamlar, mis idishlar, sharqona guldonlar va mevalar uyg‘unlashib, bir butun milliy ruhiyatni yaratadi. Milliy natyurmortlar nafaqat vizual go‘zallik yaratadi, balki tomoshabinni o‘tmish va bugunni solishtirishga, milliylikni qadrlashga, estetik zavq olishga undaydi. Ayniqsa, XXI asrda globallashuv jarayonida milliylikni saqlashda san‘at, xususan milliy natyurmortlar muhim vosita sifatida xizmat qilmoqda.

Masalan, taniqli rassomlar — Rauf Tillaev, S. Atoev, Sh. Yusupov kabi ijodkorlar o‘z asarlarida milliy an‘analarni zamonaviy uslubda aks ettirib, natyurmort janriga yangi ma‘no bag‘ishlaganlar. Ularning asarlarida milliylik unsurlari zamonaviy kompozitsiya bilan uyg‘unlashadi.

Xulosa

Milliy natyurmort o‘zbek tasviriy san‘atining muhim va sarmazmun yo‘nalishlaridan biridir. Bu janr orqali rassomlar nafaqat estetik go‘zallikni yaratadilar, balki xalqning tarixiy xotirasi, ma‘naviy dunyosi va an‘analarini ham aks ettiradilar. Milliy buyumlar, taomlar, matolar, hunarmandchilik mahsulotlari —



bularning barchasi natyurmortlarda ramziy va tarixiy ma'noga ega bo'lib, san'at asarini tomoshabinga yaqinlashtiradi.

Bugungi kunda globallashuv jarayonida milliylikni saqlash va rivojlantirish dolzarb masalaga aylangan. Shu nuqtai nazardan qaralganda, milliy natyurmortlar faqat san'at namunasi emas, balki madaniy xotirani saqlovchi vosita sifatida ham alohida o'rin tutadi. Rassomlar tomonidan yaratilgan milliy ruhdagi natyurmortlar yosh avlodda milliy qadriyatlarni anglash va ularga hurmat bilan yondashish hissini shakllantiradi.

Shunday ekan, milliy natyurmort janrining rivojiga e'tibor qaratish, yangi rassomlarni bu yo'nalishga jalb qilish va asarlarni keng targ'ib etish o'zbek san'ati rivojiga salmoqli hissa bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Qodirov, S. O'zbek tasviriy san'ati tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 2015.
2. Toshpo'latova, M. San'atshunoslik asoslari. – Toshkent: Fan, 2020.
3. Jumanazarovna, O.N. (2024). BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHISINING KASBIY FAZILATLARINI RIVOJLANTIRISHDA MURABBIYLIK VA PEDAGOGIK MASLAHATLARNING O'RNI. “Ta'limda turkiy xalqlar milliy mentalitetini mustahkamlashning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. 985-989.
4. Jumanazarovna, O. N. (2023). O'zbekiston tasviriy san'atida tarixiy janrda yaratilgan asarlar orqali talabalarning badiiy tasavvurlarini o'stirish. PEDAGOGS jurnali, 33(2), 137-144.
5. Baltayeva H.T. „Jumanazarovna O.N. (2024). IQRO JOURNAL “O'ZBEKISTON TASVIRIY VA AMALIY SAN'ATIGA OID ASARLAR ORQALI O'QUVCHILARNI BADIY-IJODIY TASAVVURINI KENGAYTIRISH. 20-23.

